

**O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASINING SHAKLLANISH
JARAYONLARIDA SHARQ MUTAFAKKIR ALLOMALARINING TUTGAN
O‘RNI**

Sotvoldiyeva Mohlaroyim G‘ayratjon qizi
*Farg‘ona davlat universiteti Vokal va cholg‘u ijrochiligi
kafedrasi talabasi*

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek milliy musiqa san‘ati, uning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot yo‘li va shakllanish jarayonlariga bag‘ishlangan. Bundan tashqari maqolada sharq mutafakkir allomalari tomonidan mumtoz musiqa san‘ati nazariyasi hamda uning ilmiy asoslariga bag‘ishlangan musiqiy risolalar hamda mazkur risolalarning sharq musiqa san‘ati rivojlanishida tutgan o‘rni haqida ham ma‘lumotlar beriladi.*

Аннотация. *Статья посвящена узбекскому национальному музыкальному искусству, его зарождению, историческому развитию и процессам становления. Кроме того, в статье приводятся сведения о музыкальных трактатах восточных мыслителей, посвященных теории классического музыкального искусства и его научным основам, а также роли этих трактатов в развитии восточного музыкального искусства.*

Annotation. *This article is devoted to Uzbek national musical art, its origins, historical development, and formation. It also provides information on musical treatises by Eastern thinkers devoted to the theory of classical music and its scientific foundations, as well as the role of these treatises in the development of Eastern musical art.*

Kalit so‘zlar: *milliy musiqa, xalq o‘g‘zaki ijodi, uyg‘onish davri, qomusiy allommalar, maqom, Duvozdah maqom, Shashmaqom, musiqa ijodiyoti.*

Ключевые слова: *национальная музыка, народная музыка, Возрождение, энциклопедисты, маком, Дувозда маком, Шахмаком, музыкальное творчество.*

Keywords: *national music, folk music, Renaissance, encyclopedists, makom, Duvozdakh makom, Shashmakom, musical creativity.*

Har bir xalqning o‘ziga hos tarixi, madaniyati hamda mazkur madaniyat negizida shakllangan musiq san‘ati bo‘lgani kabi o‘zbek xalqining ham bir-necha asrlar davomida shakllanib, kasbiylik darajasida rivojlangan mumtoz musiqa san‘ati mavjuddir. Ushbu san‘at uzoq yillar davomida iste‘dodli, yetuk xonanda-sozandalar tomonidan rivojlantirilib, sayqallanib bordi hamda hozirgi kunga qadar tinglovchilar uchun ruhiy-ma‘naviy ozuqa manbai bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda hma o‘zbek mumtoz musiqa merosiga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani sir emas. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo

etamiz” kitobida ham aynan milliy musiqamiz durdonasi hisoblangan maqomlarni o‘rganish va ularni targ‘iboti masalasida jiddiy ishlar amalga oshirish rejaları bayon etilgan.

O‘zbek milliy musiqa san‘atining kasbiy musiqa darajasiga ko‘tarilishida sharq mutafakkir allomalarining ilmiy-nazariy qarashlari, risolalarda keltirilgan ilmiy xulosalari katta ahamiyat kasb etdi. Jumladan,

Buyuk sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, Zahiridin Muhammad Bobur, abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida ijrochilik san‘ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san‘atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma‘lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar “Qobusnoma”da ham hofizlik va san‘atkorlikning qoidalariga bag‘ishlangan alohida bobga o‘rin berilgan.

Tarixan asoslangan manbalarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O‘rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o‘n ikki (Duvozdax) maqom mavjud bo‘lgan. Bular “Ushshoq”, “Navo”, “Buzalik”, “Rost”, “Xusayniy” “Xijoz”, “Rohaviy”, “Zangula” “Iroq”, “Isfaxon”, “Zirofqand”, “Bozorg”.

Farobiy. Buyuk faylasuf – olim, o‘rta asr Sharq musiqa njazraiyasining asoschilaridan biri – Abu Nasr Muhammad Farabiy 873 yilda Sirdaryo yoqasidagi Farob shahrida tug‘ulib, 950-yilda vafot etgan. U O‘rta Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan bo‘lib, dastlabki ma‘lumotni o‘z ona shahrida oladi. Durustgina bilim egasi bo‘lgan Farobiy Bag‘dod, damashq shaharlariga so‘gra Misrga boradi va u yerlarda o‘z ma‘lumotini oshiradi.

Farobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi ham edi. U o‘z davrida mavjud hamma musiqa cholg‘ularida chaldirdi. Ayniqsa, kuylarni nay va tanbur cholg‘ularida katta mahorat bilan ijro etardi. Ba‘zi manbalarda ko‘rsatilishicha, farobiy qonun cholg‘usini ixtiro etgan, o‘sha davrlarda mashhur bo‘lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borilgan. Abu Nasr Farobiy o‘zining musiqaga bag‘ishlagan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari “Kitobul musiqiy al-kabir” (“Musiqaga doir katta kitob”), “Kalam fil-musiqa” (“Musiqaga haqida so‘z”), “Kitobul musiqa” (“Musiqaga kitobi”), “Kitobun fi-ihsa’il-ulum” (“Fanlar tasnifiga doir kitob”)ning musiqaga bag‘ishlangan qismi, “Kitobun fi-ihsa’il-iqo” (“Musiqaga ritmlari iqo tasnifi haqida kitob”) va boshqalardir. Farobiyning musiqa asarlari orasida “Kitobul-musiqiy al-kabir” alohida diqqatga sazovordir. Bu kitob mashhur shaqrshunos olim D.Erlanje tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib “Arab musiqasi” turkumida nashr etilgan. Asar muqaddima va uch bo‘lak kitobdan iborat. Muqaddima qismida muallif kuy ta‘rifi, musiqaning nazariy va amaliy masalalari, kuyning paydo bo‘lishi, musiqa janrlari, cholg‘ular, kuylarning ta‘rifi, kuylarning ijrosi, intervallar, tovushqatorlar, konsonanslar va dissonanslar haqida fikr yuritiladi.

Abu Ali ibn Sino O‘rta osiyodan chiqqan ulug‘ olim Ibn Sino (980-1037) Buxoroga yaqin Afshona qishlog‘ida tug‘ulgan. U buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi ham edi. Ibn Sinoning “Kitabush-shifa” (“Shifo

kitobi”), “Donishnoma” (“Bilim kitobi”), “Kitobun najat” (“Najot kitobi”) kabi asarlarining musiqaga doir qismi va “Risalatun fi-ilmil-musiqiy” (“Musiqqa ilmi haqida risola”) kabi risolalari Abu Nasr Farobiy asarlari qatorida jahon musiqqa fani va madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi.

Ibn Sinoning bosh kitoblaridan biri “Kitabush-shifa” falsafiy xarakterda bo‘lib, unda muallifning tabiiy-ilmiy qarashlari aks ettiriladi. Muallif 13-qismida zamonasidagi tabiiy fanlarni sharxlab beradi. Shu jumladan bu yerda musiqaning nazariyasi ham yoritiladi. Asar 4 ta katta bo‘limdan iborat.

- 1.Mantiq
- 2.Fizika (Tabiiyot)
- 3.Aniq fanlar
- 4.Metafizika

Anniq fanlardan biri musiqadir Ibn Sino bu yerda musiqqa nazariyasini atroflicha talqin etadi. Musiqqa akustikasi, tovushlar, intervallar, jins va ja‘mlar, maqomlar, ritmlar va kuylar masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab beradi.

Uning yana bir asari “Kitobun-najat”ning musiqaga bag‘ishlangan qismi musiqaning unsurlarini nazariy jihatdan qisqacha sharxlab beradi. Bu asarda maqomlar masalasiga kam o‘rin ajratilgan.

Musiqqa ilmi bunda matematika fanlarining biri sifatida qaralgan edi. Bunga sabab, musiqani tashkil etgan tovushlar bir-biriga nisbatan ma‘lum nisbatda bo‘lib, matematikadagi ba‘zi qonun-qoidalar vositasi bilan tushuntirilar edi. Dastlab, intervallarni tashkil etadigan tovushlar baland-pastligi darajasi torning uzun-qisqaligi bilan o‘lchangan. Bunda tor qismlari geometriya yo‘li bilan aniqlanib, uning ma‘lum bo‘laklaridan turli intervallar chiqarib olinadi. Masalan, ikkini birga nisbati (ya‘ni ochiq torning yarmidan hosil etiladigan tovush uning o‘ziga nisbatan) oktava darajasidagi intervalni tashkil etadi va matematikada 2:1 tarzida ifoda etiladi. Xuddi shu ma‘noda torning 9 bo‘lagining 8 bo‘lagiga nisbati - katta sekundani, uning 4:3 nisbati – kvartani, 3:2 nisbati – kvintani, 8:3 – undetsimani, 3:1 duodetsimani, 4:1 - kvintdetsimani tashkil etadi. Intervallarning turlari juda ko‘p bo‘lib, ularning tashkil etgan tovushlar nisbati matematika qoidalari asosida tushuntirilar edi. Hatto jins, jam’ va maqomlarni tashkil etgan ayrim tovush (pog‘ona)larning o‘zaro nisbatlari raqamlar vositasi bilan tushuntirilar edi. SHu sababli ham arifmetika, geometriya, astronomiya qatori musiqqa ilmi ham matematika fanlaridan biri hisoblanardi.

Al-Kindiy (IX asr), Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino kabi mashhur olimlarning asarlari ko‘p asrlar davomida SHarq xalqlari musiqqa nazariyasini sharhlab berishda asosiy manba bo‘lib xizmat etdi va so‘nggi davrlarda yaratilgan musiqqa risolalarining mazmunini aniqlab berdi. Abu Nasr Forobiy zamonasidan boshlab, qariyb XV asrlargacha yozilgan musiqaga doir nazariy risolalarning mavzui, mundarijasi, ularning ichki mazmunidagi ba‘zi tafovutlardan qat‘iy nazar, ko‘p masalalarda bir-biriga juda yaqin turadi.

Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan bu risolalarda ayrim masalalar yuzasidan ba'zi ixtiloflar mavjud. XIII asrning ulkan olimi Safiuddin Abdulmo'min Urmaviy Forobiyning nazariy mulohazalarini ba'zi masalalarda to'g'ri kelmasligini isbotlashga harakat qilgan edi. Bunday ixtiloflar musiqa akustikasi, musiqa tovushi, ritm (iqo') ta'rifida, ud cholg'usidagi ayrim pardalarning o'rnini aniqlashda va boshqa masalalarda o'z ifodasini topgan. Bunday ixtiloflarda qariyb uch asrdan ko'proq o'tgan davr musiqasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan musiqa nazariyasi va amaliyotidagi o'zgarishlar o'z aksini topdi.

Sharq musiqa risolalarida qo'yilgan masalalar hozirgi zamon musiqasi unsurlar (elementar) nazariyasiga yaqin turadi. Lekin o'rta asr musiqa risolalarida Sharq xalqlari o'tmish musiqasining amaliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar ham borki, hozirgi zamon musiqa nazariyasida bular umuman uchramaydi. Chunki Sharq musiqa nazariyasida bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar o'tmishda ijro etilib kelingan musiqa asarlariga aloqador amaliy masalalar bilan bog'liq edi.

Ustozimiz Sultonali Mannopov o'zining "O'zbek xalq musiqa madaniyati asrlar silsilasida" nomli kitobida o'zbek xalqining qadimiy musiqa madaniyati, o'zbek xalq musiqa ijodiyoti va uning ko'rinishlari, milliy musiqa merosimiz haqida manbalar keltirib o'tilgan.

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning "Risola dar ilmi musiqa" (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining "Dar bayoni duvozdax maqom" (O'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog'iy, Xoja Sayfiddin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriy larni so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lg'on: "Maqomi rost", "Maqomi ushshoq", Maqomi Iroq "Magomi Xusayniy": Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning ozi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, "Bulujiy", "Shodiyona", "Axloqiy", "Tabriziy", "Usuli ravon", "Usuliy otlig'" singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi. Yugoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yollari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga parab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil magomyo llari ham o'z o'mini topganligi chtimoldan xoli emas. Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning "Shashmaqom" (olti maqom)i: "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" maqomlari o'zining nasr va mushkilot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning "Chor maqom" (To'rt maqom), "Dugoh husayniy"ning ettita yo'li, "Chorgohning oltita ijrochilik yo'li", "Shaxnozi Gulyorning beshta ijrochilik yo'li" hamda "Bayot" yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan. Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta'kidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o'ziga xos yo'nalishini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik ettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi "Panjgoh" maqomi kiritilgan. Shuning uchun avlodan-avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy boyligi sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg'ona-Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug' ne'mat sifatida ardoqlanadi. Xalq san'atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov. "Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt

bo‘lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg‘ona-Toshkentdir”, - deb ta‘riflagan ekanlar. Ustozning bu so‘zlarida katta ma‘no yotadi. Musiqiy ijrochiligimizning yana bir yo‘nalishi dostonchilik san‘ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlangan bo‘lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi. Surxondaryo, Qashqadaryoda baxshilar bo‘g‘iq ovozdagi uslubda ijro etsalar, Xorazmda aniq ashula shaklidan iborat ijrolar mazmunida kuylaydilar.

O‘tmishda nota yozuvi bo‘lmaganligi sababli og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan mashhur xalq mumtoz kuy va qo‘shiqlari endilikda notaga olingan bo‘lib, bu xayrli ishni V.A.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, LA.Akbarov, M.Yusupov, akademik Yunus Rajabiy singari allomalar amalga oshirdilar. Bu borada, ayniqsa, ustoz Yunus Rajabiyning xizmatlari beqiyosdi: Natijada yuqorida tilga olingan ustozlarning mehnatlari natijasida “O‘zbek xalq musiqasi”, “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlar” singan ko‘p jildlik qator musiqiy to‘plamlar dunyoga keldi va xalqimizning chinakam ma‘naviy boyligiga aylandi. Ushbu to‘plamlarda maqomlar va xalq an‘anaviy qo‘shiqlarini nasr va mushkilot, aytim va chertim yo‘llarini ustoz hofizlar va mohir sozandalar ajoyib sayqallar berib ijro etib kelmoqdalar. Yana shuni aytish joizki, xalqimizning ulkan musiqa merosini, fol’klor san‘atini ilmiy tahlil qilib, uni xalqqa yetkazish borasida musiqashunos olimlarimizning ham xizmatlari katta bo‘lib, o‘zlarining kitob va monografiyalarida, qo‘llanma, darsliklarida, maqola va chiqishlarida ilmiy nuqtai nazar bilan asoslab bermoqdalar. Bu borada Fayzulla Karomatli, Ilyos Akbarov, Is‘hoq Rajabov, To‘xtasin G‘ofurbekov, Rustambek Abdullaev, Abdumannon Nazarov, Oqilxon Ibrohimov, Otanazar Matyoqubov, Ravshan Yunusov, Sultonali Mannopov, Botir Matyoqubov, Soibjon Begmatov singari taniqli musiqashunoslarimizning mehnatlari beqiyosdir. O‘lkamizda musiqiy merosimizning ajralmas qismi bo‘lmish hofizlik azaldan muqaddas sanalgan. Islom olamida muqaddas kitobimiz hisoblangan “Qur‘on” oyatlarini dilga jo qilib, uning zeri-zabarlari bilan yoddan ijro etgan allomalarni “hofizi Qur‘on” deb yuritganlar. Hofiz – arabcha so‘z bo‘lib, “yodda saqlamoq” ma‘nosini anglatadi. Hofiz – Ollohning 99 ismlaridan biri deb ham ta‘riflanadi. Mumtoz hofizlarimiz islomiy bilimlardan hamda badiiy she‘riyatdan xabardor bo‘lganlar. Shuning uchun ham ular ijro etgan qo‘shiqlar nihoyatda ta‘sirchan bo‘lib, tinglovchilarni o‘zlariga rom eta olgan. Mumtoz shoirlarimizning beqiyos ma‘noga ega bo‘lgan g‘azallarini kuyga solib, ijro etgan qo‘shiqlari uchun “Hofiz” degan nomga musharraf bo‘lishlari ham qandaydir ramziy ma‘no kasb etishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent. 2016
2. Sultonali Mannopov. O‘zbek xalq musiqa madaniyati asrlar silsilasida. Farg‘ona 2024-yil.
3. Rajabov Is‘hoq “Maqomlar” Toshkent. 2006-yil
4. Mannopov S. “Navobaxsh ohanglar” Toshkent 2018-yil

